

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.28/30.07.2024.Ped.165.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI**

KOMILOVA MUYASSAR MAVJUDOVNA

**HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASIGA DIFFERENSIAL
YONDASHUV ASOSIDA HARBIY LITSEY O'QUVCHILARINING RUSCHA
NUTQINI RIVOJLANTIRISH**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tarbiya metodikasi
yo'nalishi bo'yicha)**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Komilova Muyassar Mavjudovna

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga differensial yondashuv asosida harbiy litsey
o'quvchilarining ruscha nutqini rivojlantirish3

Комилова Муяссар Мавжудовна

Развитие русской речи учащихся военного лицея на основе
дифференцированного подхода к военно-патриотическому воспитанию27

Komilova Muyassar Mavjudovna

Development of Russian speech of students of the military lyceum based on a
differentiated approach to military-patriotic education53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of publications57

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.28/30.07.2024.Ped.165.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI**

KOMILOVA MUYASSAR MAVJUDOVNA

**HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASIGA DIFFERENSIAL
YONDASHUV ASOSIDA HARBIY LITSEY O‘QUVCHILARINING RUSCHA
NUTQINI RIVOJLANTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tarbiya metodikasi
yo‘nalishi bo‘yicha)**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2024.4.PhD/Ped8677 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.uzpfiti.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ro‘ziyeva Dilnoz Isomjonovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xusanova Sumbul Islamovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Lagay Yelena Aleksandrovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti huzuridagi DSc.28/30.07.2024. Ped.165.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100736, Toshkent shahri, Ziyo ko‘chasi, 6-uy). Tel.: (99855) 511-02-69; faks: (99855) 511-02-69; e-mail: uzpfiti@exat.uz

Dissertatsiya bilan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100736, Toshkent shahri, Ziyo ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (99855) 511-02-69; faks: (99855) 511-02-69.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “___” _____dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

M.Quronov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

O.U.Musurmonkulov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi, p.f.f.d. (PhD)

Sh.K.Mardonov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ta'lim tizimida vatanparvarlik tarbiyasiga differensial yondashuv asosida o'quvchilarining ruscha nutqini rivojlantirish darajasini aniqlash indikatorlarini tizimlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu asosda Finlyandiya, Kanada, AQSH, Singapur va Niderlandiya kabi davlatlari ta'lim tizimida vatanparvarlik tarbiyasiga differensial yondashuv asosida o'quvchilarining ruscha nutqini rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Finlyandiya o'quvchilarning individual rivojlanishiga, Kanadada ta'lim dasturlarining o'quvchilar ehtiyojlariga moslashishiga, AQShda o'quvchilarning mustaqilligi va tashabbuskorligini rivojlantirishga, Singapurda bilimlarni amaliyotga qo'llashga, Niderlandiyada esa fan va o'qitish usullarining integratsiyasiga asosiy e'tibor qaratiladi. Yosh avlod tarbiyasiga bunday munosabat o'quvchilarning shakllanishi uchun ijobiy ijtimoiy muhit yaratish, faol ta'lim orqali ta'lim muassasasi va oilada qulay muhit yaratish orqali ularning ijtimoiy va ma'naviy fazilatlarini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bu mamlakatlarda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan ijobiy yondashuv yuqori darajadagi ta'lim va jahon iqtisodiyotiga muvaffaqiyatli integratsiya uchun ko'p tillilik zarurati bilan izohlanadi.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida differensial yondashuv asosida o'quvchilarining ruscha nutqini rivojlantirish modellarini takomillashtirish, ta'lim tizimini xalqaro talablar asosida takomillashtirish, o'qitishning sifat va samaradorligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Dunyo hamjamiyatida vatanparvar, xalqparvar yoshlarni tarbiyalash, shuningdek, chuqur bilim va salohiyatga ega, zamon talablariga javob beradigan hamda bir vaqtning o'zida bir nechta xorijiy tillarni, jumladan, rus tilini ham o'zlashtira olgan mutaxassislarni tayyorlashga o'ta muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda rus tilini yoshlarga o'rgatishning muhimligi shundaki, A.S.Pushkin nomidagi rus tili davlat instituti tadqiqotiga ko'ra, bu til dunyo miqyosida so'zlashuvchilar soni bo'yicha 8-, xalqaro tashkilotlarning rasmiy tillari soni bo'yicha 4-, xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalarida chop etilgan nashrlar soni bo'yicha 5-, davriy nashrlar soni bo'yicha 7-, va Internetdagi saytlar soni bo'yicha 2-, umumiy olganda, tillarning global raqobatbardoshligi bo'yicha 5-o'rinda turadi¹.

Respublikamizda harbiy mutaxassislarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muhim strategik ahamiyatga ega. Chunki topshiriqlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, hamkorlik aloqalarini yaxshilash va harbiy xizmatchilarning xavfsizligini ta'minlashda vatanparvarlik tarbiyasining o'rni beqiyos. Harbiy litsey o'quvchilarining ruscha nutqini rivojlantirish jarayonida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga differensial yondashuv bo'lajak harbiylarni xizmatning o'ziga xos ehtiyojlari va talablariga muvofiq tayyorlashning asosiy omili bo'lib xizmat qiladi. So'nggi yillarda mamlakatimizdagi barcha oliy harbiy ta'lim va o'rta maxsus harbiy

¹ Индекс положения русского языка в мире: индекс глобальной конкурентоспособности (ГК-Индекс), индекс устойчивости в странах постсоветского пространства (УС-Индекс). Выпуск 2 / сост. А. Л. Арефьев, А. Р. Голубь, С. Ю. Камышева, И. А. Маев, А. И. Ольховская, М. А. Осадчий, М. Н. Русецкая, А. С. Хехтель; под ред. М. А. Осадчего. — Москва: Государственный институт русского языка им. А. С. Пушкина, 2022. — С.60.

ta'lim muassasalarida vatanparvar, burchga sadoqatli, ilmi, bir necha xorijiy tillarni biladigan harbiy mutaxassislarni tayyorlash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son, 2016-yil 14-sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'RQ-406-son Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-232-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 312-son, 2022-yil 19-yanvardagi "Chet tillarni o'rganishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 34-son qarorlari shuningdek, sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda harbiy ta'lim muassasalarida tilni o'qitish va tarbiya masalalari A.Y.Golubenko, A.M.Qambarov kabi mahalliy olimlarning ilmiy qarashlarida batafsil yoritilgan. Zamonaviy o'zbek olimlardan L.T.Ahmedova, O.V.Kon, R.T.Tolipova, D.I.Ro'ziyeva, M.A.Berdiyeva, V.I.Andriyanova, M.X.Ahmedovalar rus tilini o'qitishning metodik apparatini takomillashtirishga o'z hissalarini qo'shganlar. Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Az-Zamaxshariy, Al-Forobiy, Al-Farg'oniy, Ibn Sino kabi sharq olimlari hamda jadid ma'rifatparvar olimlari M.Behbudiy, A.Fitrat, A.Qodiriy, Cho'lpon, A.Avloniy kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida vatanparvarlik tarbiyasiga differensial yondashuv asosida o'quvchilarining ruscha nutqini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari D.M.Nujdin, S.A.Alieva, I.N.Glazunova, A.P.Petrenkina, P.A.Savinov, E.M.Vinokurseva, S.V.Gavrish, T.M.Ivanova, I.A.Belova, V.S.Shishmarenkov, A.V.Makarkin, A.V.Perevozniy, K.S.Bajin, A.D.Shapalov, T.Y.Polyakova, O.L.Maxova, E.T.Rostovskaya, V.Y.Gojikov, A.A.Badanov, L.N.Lazutkina, D.O.Nguyen, M.V.Seleznyova, S.E.Zverev, V.M.Korovin, A.V.Beloshitskiy, S.V.Litvinenko kabilar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijiy tadqiqotchilar K.E.Tomlinson, V.V.Muravskiy, D.P.Hollahan, V.L.Shtern, D.M.Kaufman, P.S.Pullen va A.X.Maslou kabilar tomonidan tabaqalashtirilgan ta'lim o'quvchilarni individual tarbiyalash usuli sifatida o'rganilgan bo'lib, u differensial ta'lim turining asosiy omili sifatida tahlil etilgan.

Mavjud tadqiqot ishlari asosan ta'lim yoki tarbiya kontekstida tabaqalashtirilgan yondashuvdan foydalanishga qaratilgan. O'rta maxsus ta'lim tizimidagi harbiy litseylarda chet tilini o'qitishda ta'lim va tarbiyani chambarchas olib borish masalasi alohida o'rganib chiqilmagan. Shunga ko'ra biz tadqiqot ishini harbiy akademik litseylar misolida "Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga differensial yondashuv asosida harbiy litsey o'quvchilarining ruscha nutqini rivojlantirish" deb nomladik.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutida amalga oshirilgan FZ-2016-0909111822-davlat qayd raqami bilan ro'yxatdan o'tgan "Darsliklar va o'quv adabiyotlari mazmuniga Sharq pedagogik tafakkuri durdonalarini singdirish orqali o'quvchilarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi kurashchanlik ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari" mavzusidagi fundamental (2017-2020-y.y.) loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqot ishining maqsadi:

harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga differensial yondashuv asosida harbiy litsey o'quvchilarining rus tili nutqini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'quvchilarda harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash;

o'quvchilarda harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning metodik ta'minotini differensial topshiriqlarga asoslangan usullarni ishlab chiqish orqali takomillashtirish;

o'quvchilarni harbiylik kasbiga yo'naltirish, harbiy-vatanparvarlik tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirish, harbiyga xos sifat va fazilatlarni tarkib toptirish jarayonining algoritmik modelini takomillashtirish;

differensial yondashuv asosida harbiy litsey o'quvchisining vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish samaradorligini baholash mezonlari indikatorlarini aniqlash va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga differensial yondashuv asosida harbiy litsey o'quvchilarining ruscha nutqini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent harbiy akademik litseyi (THAL), Farg'ona harbiy akademik litseyi (FHAL), Shahrizabz harbiy akademik litseyi (ShHAL)ning 250 nafar o'quvchisi jalb qilingan.

Tadqiqot predmetini harbiy akademik litsey o'quvchilariga rus tilini differensial yondashuv asosida o'rgatishda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni, shakli, vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy (analitik-sintetik, qiyosiy-tanqidiy tadqiqot), diagnostik (sinov, kuzatish), prognoz qilish (ekspert baholash, baholarni umumlashtirish) usullari, pedagogik eksperiment va matematik usullar (statistik ma'lumotlarni qayta ishlash, natijalarning grafik taqdimoti)dan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning mazmuni interaktiv hamkorlikdagi o'quvchilarning tashabbusi harbiy xizmatning muqaddas burchligi va har bir fuqaro o'z mamlakati uchun mas'ulligiga ko'ra "Harbiy xizmat nima uchun

muqaddas burch?” va “Vatan himoyasi – faxrmi yoki majburiyat?” kabi axloqiy dilemmalar asosida maqsadli trening, geymfikatsiya (o‘yinga asoslangan ta’lim), kvestlar va rolli o‘yinlar (role-play)ni modellashtirish orqali takomillashtirilgan;

rus tilini o‘qitishda o‘quvchilarning vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirish metodikasi yozma va og‘zaki nutqi rivojlanganligining tegishli darajasi muvofiqligi asosida o‘quvchilarning yurt tinchligi va taraqqiyotiga hissa qo‘shish nuqtai nazaridan dahldorlik tuyg‘ularini rivojlantiruvchi debat klublar va “Mening Vatanimning g‘ururim” ko‘ngililik (volontyorlik) harakatlarida faol ishtirokiga ko‘ra takomillashtirilgan;

harbiy litsey o‘quvchilarida vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirishning algoritmik modeli vatanga sadoqat, mas’uliyat va fidoyilik kabi ma’naviy-axloqiy sifatlarni bosqichma-bosqich shakllantirishga ta’sir etuvchi “Axborot soati” va “Tarix+Tarbiya binar darslar”ni hissiy-amaliy faoliyatni rivojlantirishga asoslangan texnologiyalar bilan vatanparvarlikka oid mavzularni muvofiqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

differential yondashuv asosida harbiy litsey o‘quvchisining vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish samaradorligini burchni anglash, jamoa ichidagi mas’uliyat, intizomlilik, fidokorlik va tashabbuskorlik kabi ma’naviy-axloqiy sifatlarga ko‘ra quyi (sifatning zaif namoyon bo‘lishi), o‘rta (mo‘tadil namoyon bo‘lishi), yuqori (barqaror va ijobiy namoyon bo‘lishi) darajalarda baholashning maqsadga muvofiqligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o‘z aksini topgan:

axloqiy dilemmalar asosida maqsadli trening, geymfikatsiya (o‘yinga asoslangan ta’lim), kvestlar va rolli o‘yinlar bo‘yicha senariylar ishlab chiqilgan;

harbiy litsey o‘quvchilariga rus tilini o‘qitish hamda harbiy-vatanparvarlik fazilatlarini singdirishda differensial yondashuvning xususiyatlarini hisobga olgan holda amaliy mashqlar hamda “Differensial topshiriqlar banki” ishlab chiqilgan;

maqsadi, kasbiy tarbiyasi, o‘quvchilarning rus tilini bilish va o‘zlashtirish darajasidan kelib chiqqan holda harbiy litseylarda rus tili fanini o‘qitishga differensial yondashuv asosida kichik guruhlarini shakllantirish metodikasi taklif etilgan;

harbiy litsey o‘quvchilarida vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirishning algoritmik modeli takomillashtirilgan;

akademik litsey o‘quvchilarining ruscha og‘zaki, yozma va harbiy leksikasini rivojlantirish mobaynida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi sifatini oshirishga yo‘naltirilgan “Русский язык” o‘quv qo‘llanmasi hamda “Учимся говорить по-русски” uslubiy qo‘llanmalari ishlab chiqilgan. Shuningdek, o‘quv dasturining muayyan mavzulari o‘zlashtirishini hisobga olgan holda har bir o‘quvchi uchun individual ta’lim kontentini mashinada yaratish algoritmi taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy va ilmiy-uslubiy tadqiqotlari, o‘qituvchilarning amaliy tajribasi, harbiy-akademik litseylarning o‘quv-tarbiyaviy jarayoniga mavjud didaktik ta’minotni joriy etish, mahalliy va xorijiy mamlakatlarda maqolalar chop etish, shuningdek, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan xorijiy ilmiy jurnallar, respublika va xalqaro ilmiy anjumanlar materiallari, tadqiqot maqsadlariga mos keladigan

hamda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan eksperimental tadqiqot usullarini joriy etish bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati harbiy akademik litsey o'quvchilarining kasbiy tarbiyasini rivojlantirish asosida rus tilini o'qitishga differensial yondashuvning uslubiy bazasini takomillashtirish, sun'iy intellektdan foydalanish va o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirish orqali o'quv-tarbiyaviy jarayonni individuallashtirish samaradorligini oshirish bilan belgilanadi.

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati shundan iboratki, o'quvchilarning kasbiy tarbiyasini rivojlantirish asosida rus tilini o'qitishga differensial yondashuv bo'yicha uslubiy apparatni takomillashtirishga oid ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar o'rta maxsus harbiy ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida, pedagog kadrlar malakasini oshirish kurslarida, o'quv-uslubiy adabiyotlarni tayyorlashda tadqiqot mavzusiga oid muammolarga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarida qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga differensial yondashuv asosida harbiy litsey o'quvchilarining ruscha nutqini rivojlantirish bo'yicha olingan natijalar asosida quyidagilar joriy qilindi:

o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning mazmuni interaktiv hamkorlikdagi o'quvchilarning tashabbusi harbiy xizmatning muqaddas burchligi va har bir fuqaro o'z mamlakati uchun mas'ulligiga ko'ra "Harbiy xizmat nima uchun muqaddas burch?" va "Vatan himoyasi – faxrmi yoki majburiyat?" kabi ahloqiy dilemmalar asosida maqsadli trening, geymifikatsiya (o'yinga asoslangan ta'lim), kvestlar va rolli o'yinlar (role-play)ni modellashtirish orqali takomillashtirishga oid mualliflik g'oyalaridan harbiy akademik litsey o'quvchilari uchun mo'ljallangan "Rus tili" fani o'quv dasturi mazmuniga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining 2025-yilning 16-iyulidagi №6498/0-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning mazmuni interaktiv hamkorlikdagi ahloqiy dilemmalar asosida takomillashtirilgan;

rus tilini o'qitishda o'quvchilarning vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish metodikasi yozma va og'zaki nutqni bilishining tegishli darajasi muvofiqligi asosida o'quvchilarning yurt tinchligi va taraqqiyotiga hissa qo'shish nuqtai nazaridan daxldorlik tuyg'ularini rivojlantiruvchi debat klublar va "Mening Vatanim-mening g'ururim" ko'ngillilik (volontyorlik) harakatlarida faol ishtirokiga ko'ra takomillashtirishga oid tavsiyalar asosida "Русский язык" o'quv qo'llanmasi ishlab chiqilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 6-noyabrdagi 491-sonli buyrug'iga asosan berilgan 491609-sonli nashr ruxsatnomasi). Natijada, rus tilini o'qitishda o'quvchilarning vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish metodikasi o'quvchilarning ko'ngillilik (volontyorlik) harakatlarida faol ishtirokiga ko'ra takomillashtirilgan;

harbiy litsey o'quvchilarida vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirishning algoritmik modeli vatanga sadoqat, mas'uliyat va fidoyilik kabi ma'naviy-axloqiy sifatlarni bosqichma-bosqich shakllantirishga ta'sir etuvchi "Axborot soati" va "Tarix+Tarbiya binar darslar"ni hissiy-amaliy faoliyatni rivojlantirishga asoslangan texnologiyalar bilan vatanparvarlikka oid mavzularni muvofiqlashtirish asosida takomillashtirishga oid mualliflik yondashuvlari harbiy akademik litseylar o'quv jarayoniga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining

2025-yilning 16-iyulidagi №6498/0-son ma'lumotnomasi). Natijada, harbiy litsey o'quvchilarida vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirishning algoritmik modeli "Axborot soati" va "Tarix+Tarbiya binar darslar" bilan vatanparvarlikka oid mavzularni muvofiqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

differential yondashuv asosida harbiy litsey o'quvchilarining vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish samaradorligi, ularda o'z burchini anglash, jamoa ichidagi mas'uliyat, intizomlilik, fidokorlik va tashabbuskorlik kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlarining quyi, o'rta va yuqori darajalarini aniqlovchi diagnostik ko'rsatkichlar asosida takomillashtirishga oid takliflardan "O'zbekiston" Milliy teleradiokompaniyasining "Ma'naviy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar", "Adabiy jarayon", "Ta'lim va taraqqiyot" ma'rifiy va badiiy radioeshittirishlar ssenariysini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 20-iyundagi 0236-988-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, harbiy litsey o'quvchilarining vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish samaradorligi, ma'naviy-axloqiy fazilatlarining diagnostik ko'rsatkichlari asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 10 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 29 ta, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan respublika ilmiy jurnallarida 4 ta, xorijiy jurnallarda 7 ta, WOS ro'yxatiga kiritilgan jurnallarda 4 ta ilmiy maqola 3 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy konferensiyalarda ma'ruza tezislari hamda 1 ta o'quv, 1 ta uslubiy qo'llanma chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 151 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati bayon qilingan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining "**Harbiy litsey o'quvchilarini differensial ta'lim asosida o'qitish va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalasning nazariy-metodik jihatlari**" deb nomlangan birinchi bobi o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, ularning individualligi va tanlagan kasbiy faoliyatiga maqsadli tayyorgarligini yuqori darajada oshirishga yo'naltirilgan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi va ta'limga differensial yondashuvni tanqidiy tahlil etishga bag'ishlangan. Harbiy-akademik litseylarda ta'lim-tarbiya mazmunini profilli tabaqalashtirish harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini, o'quvchilarning qobiliyat va qiziqishlarini rivojlantirishni hisobga olgan holda kasbiy ta'lim sifatini oshirishning samarali vositalaridan biri sifatida taklif etilgan. Shuningdek, harbiy litsey o'quvchilarining harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi va ta'lim olishlariga differensial yondashuv jarayonida har bir o'quvchining individual xususiyatlari, oilada olgan tarbiyasi,

vatanparvarlik sifatlarining singdirilganlik darajasi, bilish qobiliyati va motivatsiyasini hisobga olish zarurligi ta'kidlanadi. Bu, birinchidan, o'quv-tarbiya jarayonining moslashuvchanligiga erishish va bo'lajak mutaxassislarining sifatli ta'lim va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini olishlarini ta'minlash maqsadida o'quv dasturlarini qayta tuzish, ikkinchidan, ta'limni muvaffaqiyatli davom ettirish va kasbiy faoliyatini amalga oshirishda o'zini o'zi anglash imkonini beradi.

Tadqiqot mavzusi yuzasidan jahon tajribasini o'rganish harbiy litseylarda o'quv jarayoni oddiy ta'lim muassasalaridagidan farq qilishi kerak, degan xulosaga kelishimizga imkon berdi. Harbiy leksikani o'rgatishda ta'lim kontenti tarbiya mavzusidagi turli adabiyot va manbalar asosida shakllantirilishi lozim. Nutqni rivojlantirishga doir mashqlar imkon qadar harbiy-vatanparvarlik tuyg'ularini singdirishga, so'zlashuv va muloqotning harbiy sohaga oid tipik holatlariga asoslangan bo'lishi kerak.


Zamonaviy sharoitda texnika va texnologiyaning jadal rivojlanishi mutaxassislardan bir nechta xorijiy tillarni, shu jumladan, rus tilini bilishni taqozo etadi. Bu esa o'zbek harbiy maktabini yangilash va professional kadrlar tayyorlash sifatini oshirish strategiyasini ishlab chiqishga yangicha yondashuvni talab etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, harbiy-akademik litseylarda rus tilini o'qitish orqali o'quvchilarga harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini singdirishga individual yondashuv talab darajasida shakllanmagan; shuningdek, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan o'quv-kognitiv faoliyati shakllari va ularni tashkil etishning umumiy metodikasi va o'quvchilarning rus tilini o'zlashtirishda individual xususiyatlarini inobatga olgan holda o'quv guruhlarini shakllantirishning yagona mezonlari ishlab chiqilmagan. Ushbu muammolarni hal qilish uchun o'quvchilarning ruscha nutqi rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar tizimlashtirilgan, individual o'quv guruhlarini tanlash mezonlari hamda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga yo'naltirilgan darajali topshiriqlar ishlab chiqilgan.

O'quvchining subyektivligini namoyon qilishda qulay imkoniyatlar yaratish, uning individual (psixologik, xulq-atvor va o'quv-kognitiv) xususiyatlarini hisobga olishga imkon beradigan o'quv-tarbiyaviy jarayonni to'g'ri tashkil etish maqsadida differensial ta'limni shakllantirishning tizimli yondashuvi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot ishida sun'iy intellektdan foydalangan holda o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan qiziqishini rag'batlantiruvchi interfaol va moslashtirilgan platformalar orqali personal o'rgatuvchi tizim taklif etilgan, o'qituvchilarda har bir o'quvchining shaxsiy rivojlanishi va individual ehtiyojlarini samaraliroq kuzatib borish imkoniyati yaratilgan.

Ta'lim-tarbiyaga differensial yondashuvning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bu o'quv jarayonidagi ma'lumotlarni mashinali o'qitish algoritmlari yordamida tahlil qilish hisoblanadi. Rus tilini differensial yondashuv asosida o'qitishni tashkil etish komponentlari o'quv va kognitiv faoliyatni tabaqalashtirilgan holda tashkil etish, topshiriqlarni bajarish usullari, ta'lim darajalari va baholash turlarini o'zida jamlagan. Ushbu komponentlar o'quv jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash va ularni individual yondashuv asosida baholash asosida tizimli va bosqichma-bosqich yondashuv orqali o'quvchilarning rivojlanishi ta'minlanishga xizmat qiladi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Rus tilini differensial yondashuv asosida o'qitishni tashkil etish komponentlari

Tizim o'quvchining bilim darajasidan kelib chiqib uning til ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga moslashtirilgan personal tavsiyalar va mashqlarni taklif qila oladi hamda o'quvchining erishayotgan yutuqlari haqidagi ma'lumotlarni, jumladan, topshiriqlar yuzasidan javoblari, topshiriqni bajarish vaqti va boshqa parametrlarni tahlil qilishi to'g'risida takliflar berilgan.

Fuqarolarni Vatanga sadoqat ruhida shakllantirishga yo'naltirilgan ma'naviy-axloqiy jarayon yosh avlodda ona yer himoyasiga nisbatan mas'uliyat hissini uyg'otishda muhim o'rin tutadi. Harbiy xizmatni muqaddas burch sifatida anglash, faqat bilim emas, balki ichki e'tiqod va qadriyatlarning shakllanishiga bog'liq. "Nega harbiy xizmat muqaddas burch?" yoki "Vatan himoyasi – faxrmi yoki majburiyat?" kabi dilemmalar esa yoshlarning mustaqil axloqiy pozitsiyasini shakllantiradi.

Axloqiy muammolarni tahlil qilish orqali o'quvchi shaxsiyatida reflektiv tafakkur yuzaga keladi. Bu yondashuv interaktiv va tarkibiy yondashuvlarning nazariy asosiga tayanadi. Zamonaviy ta'limda o'yinga asoslangan texnologiyalar (geymifikatsiya, kvest, rolli o'yinlar) shijoat va ijodkorlikni rag'batlantiradi. Ushbu metodlar orqali shaxsiy tajriba va emotsional taassurotlar shakllanadi. Tarbiya jarayonida bevosita qatnashuv, faol muloqot va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Ushbu bobda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida interaktiv metodlarni qo'llash nazariy jihatdan asoslangan. Shuningdek, "Axborot soati" mashg'ulotlarining ahamiyati alohida ta'kidlangan. Chunki unda harbiy akademik litsey o'quvchilarida vatanparvarlik tarix, harbiy an'analar, davlat ramzlari, qahramonlik namunalari hamda zamonaviy Vatanga xizmat qilish misollarini o'rganish orqali shakllanadi. Muloqotlar, faxriylar bilan uchrashuvlar, loyihaviy ishlar va videomateriallar samarali usullar hisoblanadi. O'qituvchilarning shaxsiy ibrati, dolzarb voqealarni tahlil qilish hamda fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirish muhim o'rin tutadi.

Dissertatsiyaning **"Harbiy litsey o'quvchilarining ruscha nutqini rivojlantirish jarayonida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga tabaqalashtirilgan yondashuvning pedagogik shartlari"** deb nomlangan ikkinchi bobi harbiy akademik litseylarning o'quv rejaları va dasturlari, rus tili fani o'qituvchilarining ta'lim-tarbiya usullari tahliliga, tarbiya jarayonida harbiy akademik litsey

o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda rus tilining ahamiyati hamda ularning rus tili nutqini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillarni tizimlashtirishga bag'ishlangan. Shuningdek, til o'rganish muammolarini hal qilish uchun sun'iy intellektga asoslangan tavsiyalar tizimidan foydalanish bo'yicha takliflar berilgan.

2020-2022, 2021-2023 va 2022-2024 o'quv yillari uchun namunaviy o'quv dasturlari tahlili shuni ko'rsatadiki, birinchidan, o'quv rejada rus tilining ulushi 4,7%dan 3,6%ga qisqartirilgan, biroq fanga qo'yiladigan umumiy talablar o'zgarmagan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Harbiy akademik litseylarda rus tiliga ajratilgan o'quv yuklama tahlili

№	Ko'rsatkichlar	2020-2022 o'quv yillari	2021-2023 o'quv yillari	2022-2024 o'quv yillari
1	Umumiy o'quv yuklama	4093	4093	4093
2	Rus tiliga ajratilgan soatlar	194	158	158
3	Rus tilining ulushi, %	4,7	3,9	3,9
1	O'quv dasturidagi umumiy dars soatlari	3032	3032	3032
2	Rus tiliga ajratilgan auditoriya soatlari	144	108	108
3	Rus tilining ulushi, %	4,7	3,6	3,6

Ilmiy tadqiqot ishi doirasida amaldagi darsliklar tahlil qilindi (Rus tili: ta'lim o'zbek va boshqa tillarda olib boriladigan o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining 10-sinflari uchun darslik, S.Y.Islombekova tahriri ostida va rus tili xorijiy til sifatida ta'lim o'zbek va boshqa tillarda olib boriladigan umumta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik / E.A.Hamrayeva tahriri ostida). Darsliklar zamonaviy ta'lim standartlari, ilg'or o'qitish usullarini hisobga olgan holda yaratilgan va harbiy akademik litseylarda o'quv jarayonida foydalanilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, birinchidan, o'quv rejadagi dars soatlarining qisqarishi va darsliklarda kasbga yo'naltirish orqali vatanparvarlik tarbiyasiga e'tibor berilmaganligi o'quv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ikkinchidan, darsliklarda grammatik qoidalar asosiy o'rinni egallab, o'quvchilarni qoidalarni yod olishga emas, balki ularni nutqda qo'llab, rus tilida erkin muloqot qilishga yo'naltirish lozim. Shuningdek, darslikda harbiy-vatanparvarlikka oid leksik mavzular ustuvor bo'lib, grammatik qoidalar ixcham va aniq berilishi, materiallar esa turli daraja va kasbga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Zarur o'quv-uslubiy adabiyotlarning etarli emasligi, bo'lajak harbiy kadrlarni tayyorlash bo'yicha malakali pedagog kadrlarning etishmasligi rus tilidagi o'quv mashg'ulotlarining zamonaviy ta'lim talablariga javob bermasligiga olib kelmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning 65%i ruscha og'zaki va yozma muloqotda qiyinchiliklarga duch kelishadi; o'quv materialini o'zlashtirgan bo'lishlariga qaramay, rus tili darslarida jummalarni to'g'ri tuzishda va ularni erkin etkazishda qiynaladilar. O'quvchilarning 72%i o'z fikrini omma oldida erkin ifoda eta olmaydi, suhbat va munozaralarda qatnasha olmaydi.

Ushbu muammolarni tadqiqot doirasida hal etish maqsadida biz harbiy akademik litsey o'quvchilariga mo'ljallangan "Rus tili" o'quv qo'llanmasi hamda "Ruscha gapirishni o'rganamiz" uslubiy qo'llanmasini yaratdik.

Harbiy akademik litsey nomzodlari o'rtasida rus tilini o'rganish muammosini tizimlashtirar ekanmiz, shuni aniqladikki, tilni o'rganishga moyillik Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Buxoro kabi turistik shaharlarda keng rivojlangan, ammo rus tilida muloqot qilish uchun muhit mavjud bo'lmagan hududlarda holat aksincha.


Ushbu muammolarni o'rganib chiqib, ishda o'quvchilarning rus tilini chuqur egallashiga ta'sir qiluvchi omillar oilaviy, ta'limiy va shaxsiy kabi yirik guruhlar bo'yicha tizimlashtirildi.

Albatta, tilni o'rganish uchun muhit yaratilmas ekan, ijobiy natijalarga erishish qiyin. Buning sabablaridan biri shundaki, dars jarayonida o'quvchi asosan o'qituvchi nutqini tinglash (ba'zan audiomateriallarni), matnni o'qish, mashqlar bajarish bilan cheklanadi, bu esa o'zlashtirilgan bilimlardan amalda kam foydalanishga olib keladi. O'rnatilgan qat'iy kun tartibi sababli to'garak mashg'ulotlarida barcha o'quvchilarni qamrab olishning iloji yo'q. Bu holat tilni o'rganishga bo'lgan ehtiyoji qoplanmagan o'quvchining noroziligiga sabab bo'ladi.

Ushbu muammolarning yechimi sifatida quyidagilar taklif etiladi:

1) harbiy akademik litseyga kirish imtihonlari ro'yxatiga rus tilida og'zaki suhbat o'tkazishni qo'shish; 2) darsliklarga o'quvchilarni vatanparvarlikka chorlovchi N.V.Gogolning "Taras Bulba" qissasidan parchalar, L.N.Tolstoyning harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi hikoyalari, rus va o'zbek adiblarining vatan mavzusidagi asarlaridan parchalarni kiritish; 3) ta'lim jarayonini differentsiyalash; 4) o'quv-tarbiyaviy jarayonni jahon ta'lim tizimiga mos ravishda to'g'ri tanlangan o'quv materiallari hamda zamonaviy o'quv qurollari va darsliklardan foydalanish asosida tashkil etish; 5) ta'lim jarayonini tabaqalashtirish.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi jarayonini tashkil etishda rus tilini o'qitish uchun differensial yondashuvning takomillashtirilgan tizimli-funksional tuzilmasi ishlab chiqildi. (2-rasmga qarang).



2-rasm. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi jarayonini tashkil etishda differensial yondashuvning tizimli-funksional tuzilmasi

Ushbu tuzilmada o'quvchilarning kasbiy tarbiyasini rivojlantirish asosida rus tilini o'qitishda differensial yondashuv usullarini qo'llashning tizimli yondashuvi

keltirilgan. Bunda har xil bilim darajasi, qobiliyat va ehtiyojlarga ega bo'lgan o'quvchilar uchun differensial yondashuv asosida rus tilini o'qitish orqali ularning kasbiy tarbiyasini rivojlantirish asosiy maqsad etib belgilangan. Tuzilmada ta'limning maqsadli komponentlari, differensial yondashuv turlari va uni amalga oshirish usullari bir-biri bilan bog'liq va izchil ravishda berilgan.

Rus tilini o'qitish jarayonida faqat til bilimini shakllantirish emas, balki tarbiyaviy vazifalarni ham amalga oshirish muhim hisoblanadi. Vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash bu vazifalarning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Axborotni qabul qilish, unga munosabat bildirish va faol ishtirok etish mahorati til ko'nikmalari bilan chambarchas bog'liq. Shu nuqtai nazardan qaralganda, tilni o'rganish jarayonida ijtimoiy faollikni rag'batlantirish maqsadga muvofiq.

“Mening Vatanim – mening g'ururim” shiori ostida o'quvchilarning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, Vatanga muhabbat, tinchlikning qadri va jamiytdagi faollikka bo'lgan munosabatlar til orqali ifoda etiladi. Demak, rus tilini o'qitishda vatanparvarlik tarbiyasiga yo'naltirilgan metodika nazariy jihatdan zarur va mantiqan asosli hisoblanadi.

Ushbu yondashuvni ta'lim jarayonida qo'llashda qator amaliy usullardan foydalaniladi. Birinchidan, rus tili darslarida yurt, tinchlik, tarix va millat mavzularidagi matnlar o'qitiladi. O'quvchilar ushbu matnlar asosida mulohaza yuritish, savol-javob va bahsga chorlanadi. Ikkinchidan, “Mening Vatanim – mening g'ururim” deb nomlangan ko'ngillilik (volontyorlik) harakatlariga oid faoliyatlar tashkil etiladi. Bu faoliyatlarda o'quvchilar mahalliy jamoalarga xizmat ko'rsatish, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish, targ'ibot ishlarini olib borishadi. Shuningdek, debat klublari tashkil etilib, vatan, tinchlik, insonparvarlik va ma'naviyat mavzusida munozaralar o'tkaziladi. Debat klublari rus tilida fikr bildirish, dalil keltirish va axloqiy pozitsiyani ifoda qilish imkoniyatini beradi. O'qituvchilar va murabbiylar o'quvchilar bilan nutq madaniyati, axloqiy masalalar va ijtimoiy faollikni tarbiyalashga yo'naltirilgan treninglar o'tkazadilar. Bunday mashg'ulotlarda rolli o'yinlar, ijodiy yozuvlar va taqdimotlar keng qo'llaniladi. Darsdan tashqari madaniy tadbirlar, hikoyalar tanlovlari va turli ijtimoiy aksiyalar o'tkazilishi mumkin. Natijada rus tilini o'rganish jarayoni ma'naviy-tarbiyaviy maqsadlar bilan boyiydi.

Ushbu metodik yangilikni ta'lim jarayoniga joriy etish samarasi qator ijobiy natijalarda namoyon bo'ldi. Avvalo, o'quvchilarning rus tilida erkin fikr bildirish ko'nikmalari rivojlandi. Ularda ijtimoiy masalalarga befarq bo'lmaslik, daxldorlik tuyg'usi va mas'uliyat hissi kuchaydi. “Mening Vatanim – mening g'ururim” kabi tadbirlarda qatnashgan o'quvchilarda fuqarolik ongi shakllandi. Ko'ngillilik (volontyor) faoliyatlari ularni jamoat ishlariga jalb qildi va faollik darajasini oshirdi. O'quvchilar tanqidiy fikrlash, dalillash va yozma nutqni to'g'ri tashkil qilishga o'rgandilar. Tahlillarga ko'ra, bunday yondashuvda ularning motivatsiyasi kuchaygan va darsga qiziqishni oshgani kuzatilgan. Aytish joizki, saviyasi yuqori matnlar asosida qilinadigan muloqotlar shaxsiy o'sishni ta'minlaydi. Ta'lim jarayonidagi ijtimoiylashuv yuqori bo'ladi, o'quvchilarda jamoaviy munosabatlar

yaxshilanadi, ya'ni rus tilini o'rgatish orqali vatanparvarlik tarbiyasini yuritish amaliy va samarali usul sifatida o'zini oqlay oladi.

Tadqiqot ishining ikkinchi bobida harbiy akademik litseylar uchun maxsus darslik yaratish va unga vatanparvarlik mavzusiga oid leksik materiallarni kiritish zarurligi asoslanadi. Shuningdek, rus tilini sun'iy intellekt orqali o'qitishda tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish tavsiya etiladi.

Dissertatsiyaning **“Harbiy litsey o'quvchilarining harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish asosida rus tilini o'qitishga differensial yondashuv bo'yicha eksperimental tadqiqotlar va uslubiy tavsiyalar”** deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqot ishi doirasida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari, olingan natijalarning ishonchliligini tekshirishda foydalanilgan matematik va statistik tahlillar yoritilgan, olingan natijalarning samaradorligi asoslangan, harbiy litsey o'quvchilarida vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirishning algoritmik modeli taklif qilingan.

Tajriba-sinov tadqiqoti 2020-2023-yillarda uch bosqichda Toshkent (THAL), Farg'ona (FHAL) va Shahrisabz (ShHAL) harbiy akademik litseylarida 250 nafar o'quvchi ishtirokida 3 bosqichda o'tkazilgan:

1. Izlanish bosqichi (2020-2021 o'quv yili). Ushbu bosqichda tajriba ishining asosiy muammosi aniqlanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, shuningdek, tajriba-sinov ishlarining uslublari belgilangan. So'rovnoma o'tkazilgan, shuningdek, HAL o'quvchilarini rus tiliga differensial yondashuv asosida o'qitish jarayonida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi modelini ishlab chiqish yo'nalishlari belgilangan (tasdiqlash kesimi). Ish jarayonida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining shakllanganlik darajasi diagnostikasi o'tkazilgan.

2. Tajriba-sinov bosqichi (2021-2022 o'quv yili). Belgilangan vazifalarni hal etish uchun nazorat va tajriba guruhleri shakllantirilgan. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan A1 (quyi), A2 (o'rta) va B1 (yuqori) murakkablik darajalarini qamrab oluvchi topshiriqlarni o'z ichiga olgan o'quv mashg'ulotlari o'tkazilgan. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga differensial yondashuvni qo'llash samaradorlik darajasi nazorat qilingan va tahlil qilingan. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash hamda vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish samaradorligini burchni anglash, jamoa ichidagi mas'uliyat, intizomlilik, fidokorlik va tashabbuskorlik kabi ma'naviy-axloqiy sifatlarga ko'ra quyi (sifatning zaif namoyon bo'lishi), o'rta (mo'tadil namoyon bo'lishi), yuqori (barqaror va ijobiy namoyon bo'lishi) darajalarda baholash mezonlari ishlab chiqilgan, tadqiqot natijalari ustidan nazorat olib borilgan. Tajriba-sinov samaradorligi baholangan, shuningdek, o'quvchilarda vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirishning algoritmik modeli sinovdan o'tkazilgan.

3. Tajriba-sinovning yakuniy bosqichi (2022-2023 o'quv yili). Yakuniy bosqichda (yakuniy kesim) olingan natijalar tahlil qilingan. Shuningdek, yakuniy tajribalar natijalari asosida xulosalar shakllantirildi va metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Rus tilini o'qitish jarayonida differensial yondashuv asosida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga yo'naltirilgan va tayyorlangan materiallarni amaliyotga joriy etish bo'yicha metodik tavsiyalar taklif etilgan.

Tajriba-sinovda THALdan 75 nafar, FHALdan 75 nafar, ShHALdan 100 nafar, jami 250 nafar o'quvchi, shundan 105 nafari eksperiment guruhida, 145 nafari kontrol (nazorat) guruhi tarkibida ishtirok etgan.

Bulardan tashqari, harbiy litseylarda o'quv jarayonini sifatli tashkil etish maqsadida o'quvchilarni quyidagicha kichik guruhlariga ajratish tavsiya qilingan:

I. Guruhlarni shakllantirish maqsadida:

1) qisqa muddatli kichik guruhlar; 2) uzoq muddatli kichik guruhlar.

II. Kasbiy qiziqishlari bo'yicha: 1) gumanitar yo'nalish; 2) aniq fanlar yo'nalishi; 3) iqtisodiy yo'nalishlarda ta'lim olishni xohlovchi o'quvchilar guruhi.

III. Rus tilini bilish darajasiga ko'ra: 1) maktabda ruscha ta'lim olgan o'quvchilar guruhi (umumiy o'quvchilar sonining 5%); 2) rus tilini past yoki o'rta darajada biladigan o'quvchilar guruhi (umumiy o'quvchilar sonining 95%).


IV. Rus tilini o'zlashtirish darajasiga ko'ra:

1) peshqadam guruh; 2) rus tilini o'rganishning dastlabki bosqichidagi guruh.

O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash har tomonlama rivojlangan avlodni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bu jarayon nafaqat umumiy pedagogik tamoyillarga rioya etishni, balki har bir o'quvchining yoshi, jinsi va individual-psixologik xususiyatlarini ham hisobga olishni talab etadi. Umumiy yondashuv barcha o'quvchilarga bir xil ta'sir ko'rsata olmagan sababli, individuallashtirilgan va differentsiallashtirilgan tarbiya modeliga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Yuqoridagi xulosalar va fikrlar umumlashtirib, ta'lim maqsadi, mazmuni, vositalari va natijalariga tizimli yondashuv asosida rus tilini o'qitish jarayonida harbiy akademik litsey o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning takomillashtirilgan modeli taklif etilgan (3-rasmga qarang).

Ushbu model 5 ta shartli bloklardan tashkil topib, 1 – ta'limni differentsiallashtirishga tayyorgarlik blokida o'quvchilarning individual qobiliyatlari asosida guruhlash, o'quv rejalari va texnologiyalarni tanlash amalga oshiriladi. 2 – jarayonlarni tashkil etish blokida ta'lim-tarbiya jarayonini differentsiallashtirish, guruhlar uchun shart-sharoit yaratish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi. 3 – maqsad va uslublarni moslashtirish blokida ta'lim-tarbiya maqsadlari va o'qitish usullari o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlariga ko'ra moslashtiriladi. 4 – mezonlarni belgilash va tahlil qilish: ta'lim va tarbiya jarayonlarini tabaqalashtirishni amalga oshirish uchun mezonlar (qobiliyat, bilim, ko'nikma) aniqlanadi va shu asosda darajali topshiriqlar tayyorlanadi. So'nggi 5 – monitoring va baholash blokida tanlangan mezonlar bo'yicha natijalarni baholash, uzluksiz diagnostika olib borish va differensial topshiriqlar bankini shakllantirish orqali ta'lim sifatini muntazam ravishda nazorat qilish amalga oshiriladi. Aniq maqsadlar asosida ish olib borilgani tufayli, natijalar tezroq va samarali ko'rindi.

Pedagoglar bunday model orqali har bir o'quvchiga alohida yondashish imkoniga ega bo'ldilar. Tarbiya samaradorligi oshdi, ishonch, vatanga muhabbat va mas'uliyat kabi tuyg'ular rivojlandi. Modelning diagnostikaga asoslangan bo'lishi natijalarni baholash va tuzatish imkonini berdi. Umuman olganda, ushbu ilmiy yangilikning qo'llanilishi orqali yuksak insonparvarlik va vatanparvarlik g'oyalari samarali targ'ib qilish mumkin bo'ldi.



3-rasm. Harbiy litsey o'quvchilarida vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirishning algoritmik modeli

Tajriba sinovining birinchi bosqichida harbiy akademik litsey o'quvchilarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining shakllanganlik darajasi hamda ularning rus tilini

o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari haqida umumiy tasavvurga ega bo‘lish uchun anketa savollari berildi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning 38%i rus tilini o‘rganishdan maqsad kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish, respondentlarning 27%i esa o‘z-o‘zini yanada rivojlantirish deb hisoblaydi.

Harbiylik kasbi, burchi, Vatanga sadoqat fazilatlarini rivojlantirish asosida ta’lim standartlarida belgilangan A1 (quyi), A2 (o‘rta) va B1 (yuqori) darajalarni ta’minlash hamda o‘quvchilarning o‘quv materiallarini faol interiorizatsiyasini rag‘batlantirish imkoniyatlariga muvofiq rus tilini differensial o‘qitish jarayonida o‘quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yo‘naltirilgan quyidagi amaliy topshiriqlar klasteri ishlab chiqilgan.

I. Turlari bo‘yicha. Differensial mashqlar:

1. Og‘zaki harbiy leksikani rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar.

O‘tkazilgan tajribalar o‘quvchilarning nutqida harbiylik kasbiga oid so‘zlar etarli darajada emasligini ko‘rsatdi. Rus tili darslarida o‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirish va harbiy leksikasini boyitish maqsadida biz “Mening litseyim”, “Harbiy litsey o‘quvchisining kun tartibi” matnlari bilan ishlash hamda “Nega harbiy xizmat muqaddas burch sanaladi?” va “Vatan himoyasi – bu faxrmi yoki majburiyatmi?” kabi axloqiy-dilemmatik savollar asosida modellashtirilgan kvestlar hamda rolli o‘yinlardan (role-play) foydalanish tavsiya etildi.

2. Yozma nutqni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar.

O‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish maqsadida “O‘z-o‘zini tekshirish diktanti”, “Ko‘z xotirasi diktanti”, “Tasviriy diktant” kabi ta’limiy va ijodiy diktant turlari metodikasi takomillashtirildi. Matnlar mazmunan vatanparvarlik tarbiyasi elementlarni o‘z ichiga oladi hamda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga ko‘maklashadi.

II. Darsning bosqichlariga moslik darajasiga ko‘ra

1. Darsning kirish qismida qo‘llaniladigan darajali mashqlar. Bunda xotirani rivojlantirish va diqqatni darsga qaratish maqsadida osonroq, mantiqiy bajariladigan qisqa topshiriqlarni tanlashga alohida e’tibor berildi.

a) “Kim tezroq?” mashqi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

“Kim tezroq?” mashqi bo‘yicha topshiriqlar

A1 darajali mashqlar	A2 darajali mashqlar	B1 darajali mashqlar
“пограничник” so‘zini tashkil etuvchi harflardan foydalanib, kamida 10 ta so‘z hosil qiling. Masalan: кино, рано, нора...	Tuzilgan yangi so‘zlardan foydalanib, 10 ta so‘z birikmasi yasang. Masalan: интересное кино, рано утром, волчья нора...	Tuzilgan so‘z birikmalari yordamida 5 ta gap tuzing. Masalan: рано. Каждое утро мы встаем рано и занимаема гимнастикой.

Bu mashq o‘quvchilarning diqqatini rivojlantirish, so‘z boyligini oshirish va nutq faolligini kuchaytirishga qaratilgan. “Пограничник” so‘zidan yangi so‘zlar yasash va vatan, burch mavzularida gaplar tuzish topshirildi. Sinov guruhda murakkablashtirilgan vazifalar va jamoalararo o‘tish imkoniyati o‘quvchilarning qiziqishini oshirib, faol ishtirokini ta’minladi hamda harbiy xizmatga hurmat va Vatan oldidagi burch tuyg‘usini shakllantirdi.

Tajribaning ushbu bosqichida guruhlarda o‘quvchilarning ko‘rsatkichlari 10% dan 14% gacha o‘sgani kuzatildi.

b) “Tilla beshovlon” diktanti “Sifat” mavzusi misolida (3-jadvalga qarang).

Ushbu mashq o‘quvchilarda tez va sifatli ishlash ko‘nikmalarini, raqobatbardoshlikni, grammatik qoidalarni amaliy qo‘llashni hamda natijaga intilishni shakllantiradi. hamda ularda intizom, mas’uliyat va maqsadga yo‘naltirilganlik rivojlanadi, bu esa ularning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, Vatanga xizmat qilishga tayyorlik ruhida tarbiyalanishiga xizmat qiladi.

Tajribaning ushbu bosqichida ishtirok etgan o‘quvchilar daftarlariga quyidagi iboralarni yozishdi: быстрый шаг, короткая дистанция, лицейский плац, верное слово, военная школа, спортивный зал, полевое занятие, командирский приказ, торжественная клятва, ученическое поручение.

Iboralarni yozishgan so‘ng quyidagi topshiriqlarni bajarishdi:

3-jadval

“Tilla beshovlon” mashqi bo‘yicha darajali topshiriqlar

A1 darajali mashqlar	A2 darajali mashqlar	B1 darajali mashqlar
Sifatlarining rodini aniqlang	Sifat turlarni aniqlang	So‘z birikmalari ishtirokida gap tuzing.

Natijalarga ko‘ra, birinchi diktantda bilim sifati 86 % ni, ikkinchisida 92 % ni tashkil etdi. Shunday qilib, bilim sifati 6% ga oshgani aniqlandi.

2) darsning asosiy qismida tabaqalashtirilgan mashqlar:

a) yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlarni o‘rganish uchun mashqlar:

